<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdukosim Abdulakim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	



Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmataliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish.....	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников.....	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана.....	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися.....	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления.....	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения.....	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari.....	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	

NAZORAT QILUVCHI PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNI YARATISHDA SUN'IY INTELEKTNING AHAMIYATI

Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti

Aniq fanlar kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi va amaliy ahamiyati yoritilgan. Ta'lim jarayonida bilimlarni baholash, monitoring qilish va tahlil etish samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning o'rni asoslab berilgan. Xususan, Google AI Studio platformasi yordamida nazorat qiluvchi pedagogik dastur yaratish bosqichlari, uning funksional imkoniyatlari hamda ishlash mexanizmlari amaliy misollar orqali ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan dasturiy vositalarning o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual yondashuvni ta'minlash hamda baholash jarayonida subyektivlikni kamaytirishdagi afzalliklari tahlil qilingan. Maqola natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etishda metodik va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, pedagogik dasturiy vosita, nazorat tizimi, Google AI Studio, ta'lim texnologiyalari, avtomatlashtirilgan baholash.

Abstract: This article highlights the relevance and practical significance of using artificial intelligence technologies in the development of assessment-oriented pedagogical software tools. The role of AI-based systems in improving the effectiveness of knowledge assessment, monitoring, and analysis in the educational process is substantiated. In particular, using the Google AI Studio platform as an example, the stages of developing an assessment-oriented pedagogical program, its functional capabilities, and operating mechanisms are examined through practical cases. The study analyzes the advantages of AI-based software tools in identifying students' knowledge levels, ensuring an individualized approach, and reducing subjectivity in the assessment process. The findings provide a methodological and practical basis for integrating artificial intelligence technologies into the education system.

Key words: artificial intelligence, pedagogical software tool, assessment system, Google AI Studio, educational technologies, automated assessment.

Аннотация: В данной статье раскрываются актуальность и практическая значимость использования технологий искусственного интеллекта при разработке контролирующих педагогических программных средств. Обоснована роль систем на основе искусственного интеллекта в повышении эффективности оценки, мониторинга и анализа знаний в образовательном процессе. В частности, на примере платформы Google AI Studio рассмотрены этапы создания контролирующей педагогической программы, её функциональные возможности и механизмы работы с использованием практических примеров. В ходе исследования проанализированы преимущества программных средств, разработанных на основе искусственного интеллекта, в определении уровня знаний обучающихся, обеспечении индивидуального подхода и снижении субъективности в процессе оценивания. Результаты статьи могут служить методической и практической основой для внедрения технологий искусственного интеллекта в систему образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогическое программное средство, система контроля, Google AI Studio, образовательные технологии, автоматизированное оценивание.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida yangi yondashuvlar va innovatsion yechimlarni joriy etishni talab etmoqda. Ta'lim jarayonida bilimlarni nazorat qilish va baholash tizimi o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. An'anaviy baholash usullarida subyektivlik, vaqt sarfi hamda natijalarni chuqur tahlil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi kuzatiladi.

Ushbu muammolarni hal etishda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning bilim darajasi



avtomatik tarzda tahlil qilinib, individual tavsiyalar berish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, sun'iy intellekt asosida nazorat tizimlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur mavzu jahon miqyosida ham, MDH mamlakatlarida ham, respublikamiz darajasida ham dolzarbdır. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimlari innovatsion texnologiyalarni tez qabul qilmoqda va shu bilan birga o'qitish metodologiyalarini muntazam ravishda yangilab borishi lozim. Yevropa va boshqa rivojlangan ta'lim tizimlarida pedagogik dasturiy vositalar hamda o'qitish metodikalarini uyg'unlashtirish orqali o'quv natijalari va malaka talablari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishilmoqda.

MDH hududida esa umumiy tarixiy va ta'limiy ildizlar, shuningdek, bir xildagi o'quv dasturlari hamda pedagogik an'analar mavjudligi sababli pedagogik dasturiy vositalarni mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish, rus va mahalliy tillarda metodik qo'llanmalar yaratish muhim hisoblanadi. Respublika darajasida so'nggi yillarda ta'limni raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, ta'lim muassasalarining onlayn platformalar va elektron resurslarga o'tishi, shuningdek, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan dasturlar mazkur mavzuning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, milliy til va milliy ta'lim standartlariga mos dasturiy mahsulotlar hamda metodik materiallar yaratish mamlakatimiz ta'lim sohasidagi strategik maqsadlariga xizmat qiladi.

Umuman olganda, pedagogik dasturiy vositalar fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni amaliy metodik tavsiyalar bilan boyitish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb ehtiyojidan kelib chiqadi. Ushbu mavzu ilmiy hamjamiyat va amaliy ta'lim sohasini birlashtiruvchi mazmuni bilan ahamiyatlidir: u ta'limni raqamlashtirish jarayonida o'qitish metodikasini yangilash, pedagog kadrlarning raqamli malakasini oshirish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish orqali tadqiqot nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy jihatdan ham ta'lim jarayonlarida sezilarli ijoby o'zgarishlarga olib kelishi kutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Karpliuk S. hamda Vakaliuk T. 2018-yilda "Гляд функціональних можливостей програмного забезпечення для управління освітнім процесом закладу вищої освіти" nomli ilmiy maqolasida "Dean's Office" keng qamrovli axborot-tahliliy tizimidan foydalanish bo'yicha metodik ko'rsatmalarni bayon etib, uning ayrim ishchi modullarining funksionalligiga alohida e'tibor qaratgan. Mazkur maqolada milliy oliy ta'lim muassasalarida joriy etilgan boshqa mashhur avtomatlashtirilgan axborot-tahliliy tizimlarning funksionalligi asosiy tamoyillar asosida tahlil qilinib, keyingi tadqiqot yo'nalishlari belgilab o'tilgan.

Shrivastava S. va Shrivastava C. 2024-yilda "Emerging Software and Tools in Higher Education Institutions" nomli maqolasida raqamli inqilob natijasida kompaniyalar, tashkilotlar hamda oliy ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan yangi dasturiy ta'minot va vositalar tizimlarni avtomatlashtirishni sezilarli darajada yengillashtirganini ta'kidlaydi. Mualliflar ta'lim muassasalari uchun avtomatlashtirish, onlayn ma'lumotlarni boshqarish, hamkorlik, rejalashtirish, videokonferensiya, plagiatni aniqlash, til o'rganish kabi imkoniyatlarni taqdim etuvchi dasturiy yechimlar mavjudligini qayd etib, dasturiy ta'minotni tanlash va joriy etishda uning sifati, funksional xususiyatlari hamda xavfsizlik jihatlarni chuqur o'rganish zarurligini asoslaydi.

Bernotaitė S. hamda Ottesen E. 2025-yilda "Entanglement of support and governance in digital curriculum instruments: The case of educational reform in Norway" nomli maqolasida Norvegiyada o'quv dasturini yangilash jarayonida ishlab chiqilgan raqamli vosita – o'quv dasturini rejalashtirish vositasi (CPT)ni tahlil qilishda konfiguratsiyalar semiotikasi yondashuvidan foydalanilganini yoritadi hamda milliy o'quv dasturi bilan mahalliy tatbiq o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish masalalariga e'tibor qaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maqsadi sifatida–Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vosita yaratish jarayonini o'rganish va Google AI Studio platformasi asosida ishlab chiqilgan dastur orqali baholash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish olindi.

Tadqiqot vazifalari etib quyidagilar belgilab olindi:

- nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarning ta'lim tizimidagi ahamiyatini aniqlash;
- sun'iy intellekt texnologiyalarining baholash jarayonidagi ustunliklarini tahlil qilish;
- Google AI Studio platformasining imkoniyatlarini o'rganish;
- nazorat qiluvchi dastur yaratish bosqichlarini yoritish;
- ishlab chiqilgan tizimning amaliy samaradorligini baholash.




TAHLIL VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt (AI) – inson aqliga xos bo'lgan vazifalarni, jumladan, tabiiy tilni tushunish, naqshlarni aniqlash va ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilish kabi jarayonlarni bajarishga qodir bo'lgan aqlli mashinalarni yaratishni o'z ichiga oluvchi, jadal rivojlanayotgan texnologiya sohasidir. Sun'iy intellekt mashinalarning yangi va paydo bo'layotgan vaziyatlarga moslashishi, muammolarni hal qilishi, savollarga javob berishi, reja tuzishi hamda odatda insonlarga xos bo'lgan boshqa intellektual funksiyalarni bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tushuncha kompyuter ilmlari sohasiga mansub bo'lib, aqlli xulq-atvorni taqlid qilish va ideal holda inson imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi kompyuter dasturlarini yaratishni nazarda tutadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt turli sohalarini tubdan o'zgartirmoqda va ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. AI texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi o'qituvchilar hamda ta'limiy baholash mutaxassislari uchun o'qitish va o'rganish jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan baholash vositalari baholashning aniqligi va samaradorligini oshirish, talabalarga shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar taqdim etish hamda o'qituvchilarga har bir ta'lim oluvchining individual ehtiyojlariga mos o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bois sun'iy intellekt ta'limni yetkazish va baholash usullarini inqilobiy tarzda o'zgartirish salohiyatiga ega bo'lib, yakunda ta'lim oluvchilar uchun yanada yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv o'qituvchilarning sun'iy intellektga asoslangan baholashdagi rolini hamda ta'limiy baholash jarayonida AI vositalaridan foydalanishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishni taqozo etadi. Shu bilan birga, maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish va ta'limiy baholashda sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalar yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limiy baholashda sun'iy intellektdan foydalanishning ham afzalliklari, ham cheklari mavjud bo'lib, o'qituvchilar, qaror qabul qiluvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar ushbu texnologiyaning ijobiy jihatlarini maksimal darajada oshirish va u bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan yondashuvlarni hamkorlikda ishlab chiqishlari zarur.



1-rasm: Adaptiv test nazorat tizimi blok-sxemasi



Google AI Studio sun'iy intellekt modellarini tayyorlash, sinovdan o'tkazish va ta'lim jarayoniga moslashtirish imkonini beruvchi zamonaviy platforma bo'lib, uning asosida turli xil nazorat va baholash tizimlarini ishlab chiqish mumkin. Mazkur tizimlarga quyidagilar kiradi:

- avtomatlashtirilgan test nazorati tizimi, bunda o'quvchilarning bilim darajasi testlar orqali avtomatik baholalanadi;
- adaptiv (moslashuvchan) baholash tizimi, ya'ni o'quvchining bilim darajasiga qarab savollar murakkabligi o'zgartiriladi;
- yozma ishlarni sun'iy intellekt yordamida tekshiruvchi tizim, bunda insho, referat, esse va masala yechimlari tahlil qilinadi;
- og'zaki javoblarni baholash tizimi, unda audio yozuvlar tahlil etiladi;
- diagnostik va monitoring nazorat tizimi, u orqali o'quvchining rivojlanish dinamikasi muntazam ravishda kuzatib boriladi.

Google AI Studio platformasi sun'iy intellekt modellarini moslashuvchan baholash mexanizmlariga moslab sozlash imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlar asosida adaptiv test tizimi ishlab chiqiladi. Mazkur tizim o'quvchining javoblariga qarab test savollarining murakkablik darajasini avtomatik ravishda o'zgartirib boradi va natijada o'quvchining real bilim darajasi aniqroq baholanadi.

Tizimning mantiqiy ishlash ketma-ketligi quyidagicha ifodalanadi: dastlab tizim ishga tushiriladi, so'ng o'quvchi login yoki ID orqali tizimga kiradi va uning boshlang'ich bilim darajasi (odatda o'rta daraja) belgilanadi. Keyingi bosqichda savollar bazasidan mos murakkablikdagi savol tanlanib, o'quvchiga taqdim etiladi. O'quvchi javob bergach, sun'iy intellekt modeli javobni tahlil qiladi: agar javob to'g'ri bo'lsa, keyingi savol murakkabligi oshiriladi, agar javob noto'g'ri bo'lsa, savol murakkabligi pasaytiriladi. Shu bilan birga, o'quvchining balli va bilim profili yangilanadi. Ushbu jarayon test savollari soni tugaguncha takrorlanadi. Yakunida umumiy natija hisoblanib, o'quvchiga uning umumiy balli, bilim darajasi va individual tavsiyalar taqdim etiladi, shundan so'ng tizim faoliyati yakunlanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt asosida yaratilgan nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalar ta'lim jarayonida baholash sifatini sezilarli darajada oshiradi. Google AI Studio platformasi yordamida ishlab chiqilgan dastur o'quvchilarning bilim darajasini tezkor va aniq aniqlash, natijalarni avtomatik tahlil qilish hamda individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv baholash jarayonida inson omiliga bog'liq subyektivlikni kamaytiradi va o'qituvchi mehnatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Bernotaite, S., & Ottesen, E. (2023). Entanglement of support and governance in digital curriculum instruments: The case of educational reform in Norway. *European Educational Research Journal*, 24, 168–186. <https://doi.org/10.1177/14749041231213902>.
3. Karpliuk, S., & Vakaliuk, T. (2018). Огляд функціональних можливостей програмного забезпечення для управління освітнім процесом закладу вищої освіти. *Information Technologies and Learning Tools*. <https://doi.org/10.33407/itl.v65i3.1961>.
4. Shrivastava, S., & Shrivastava, C. (2024). Emerging software and tools in higher education institutions. *International Journal of Soft Computing and Engineering*. <https://doi.org/10.35940/ijscce.f3620.13060124>.
5. Owan, V., Abang, K., Idika, D., Etta, E., & Bassey, B. (2023). Exploring the potential of artificial intelligence tools in educational measurement and assessment. *Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education*. <https://doi.org/10.29333/ejmste/13428>.
6. Imran, M., & Almusharraf, N. (2024). Google Gemini as a next generation AI educational tool: A review of emerging educational technology. *Smart Learning Environments*, 11. <https://doi.org/10.1186/s40561-024-00310-z>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.